Qalandarova Dilfuza Satimboyevna (CHDPU mustaqil tadqiqotchisi; dilfuzatoshpulatova776@gmail.com)

PRAGMATIK OMILLAR ASOSIDA SINTAKTIK SHAKLLAR MA'NOSINING VOQELANISHI

Annotatsiya. *Mazkur mavzu tilshunoslikda sintaktik shakllarning ma'nosi qanday qilib real nutq jarayonida yuzaga chiqishini pragmatik omillar asosida o'rganishga qaratilgan. Unda gapning grammatik tuzilishi bilan birga, nutq vaziyati, so'zlovchi va tinglovchi munosabati, kontekst hamda kommunikativ maqsad kabi omillar sintaktik birliklar ma'nosining shakllanishida muhim rol o'ynashi yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *sintaksis, pragmatika, nutq vaziyati, kontekst, kommunikativ maqsad, sintaktik shakl, ma'no voqelanishi.*

Каландарова Дилфуза Сатимбоевна (независимый исследователь ЧДПУ; e-mail: dilfuzatoshpulatova776@gmail.com)

РЕАЛИЗАЦИЯ ЗНАЧЕНИЯ СИНТАКСИЧЕСКИХ ФОРМ НА ОСНОВЕ ПРАГМАТИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ

Аннотация. *Данная тема направлена на изучение того, как значение синтаксических форм реализуется в реальном речевом процессе на основе прагматических факторов в лингвистике. В ней освещается, что наряду с грамматической структурой предложения такие факторы, как речевая ситуация, отношения между говорящим и слушающим, контекст и коммуникативная цель, играют важную роль в формировании значения синтаксических единиц.*

Ключевые слова: *синтаксис, прагматика, речевая ситуация, контекст, коммуникативная цель, синтаксическая форма, реализация значения.*

Dilfuza Satimboyevna Qalandarova (Independent Researcher, CHDPU; E-mail: dilfuzatoshpulatova776@gmail.cm)

REALIZATION OF THE MEANING OF SYNTACTIC FORMS BASED ON PRAGMATIC FACTORS

Annotation. *This topic focuses on studying how the meaning of syntactic forms is realized in actual speech based on pragmatic factors in linguistics. It highlights that, along with the grammatical structure of a sentence, factors such as the speech situation, the relationship between the speaker and the listener, context, and communicative purpose play an important role in shaping the meaning of syntactic units.*

Keywords: *syntax, pragmatics, speech situation, context, communicative purpose, syntactic form, realization of meaning.*

Kirish. Gap kesimi axborot markazi va gapning konstruktiv asosi bo'lganligi sababli, kesimlik ma'nolarining yuzaga chiqishida obyektiv voqelik bilan bir qatorda so'zlovchining **intensioni, subyektiv muno-sabati** va **nutqiy vaziyat** hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda shaxs-son kategoriyasi umumiy gram-matik ma'nosining voqelanishi pragmatik jihatdan izohlanadi. Tilshunoslikda sintaktik shakllarning ma'-nosini o'rganish nafaqat ularning grammatik tuzilishini, balki nutq jarayonida qanday qo'llanishini ham tahlil qilishni talab etadi. Ayniqsa, zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda pragmatik omillarning roli tobora ortib bormoqda. Chunki sintaktik birliklarning haqiqiy ma'nosi faqat til tizimi doirasida emas, balki aniq nutq vaziyati, kontekst, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi munosabat hamda kommunikativ maqsad asosida to'liq namoyon bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Gap mazmuniga pragmatik munosabat unda kommunikativ munosabat va subyektiv modallik "ba'zan" emas, ko'p hollarda belgilovchi maqomida bo'lishini ko'rsatadi. Bu haqda tilshunos olima M.Ernazarova fikrlari diqqatga sazovor bo'lib, uning shaxs-son kategoriyasi umumiy ma'nosining voqelanishida pragmatik omillarning o'rni xususidagi fikrlarini keltirish joiz deb bildik: "So'zlovchining intensiyasi va axborotning xususiyatiga munosabat bilan bog'liq ravishda shaxs-son kategoriyasi ma'nolarining voqelanishida pragmatik omillar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, shaxs -son kategoriyasi, aytilganidek, gap mazmunidan anglashilgan xabarning uch shaxsdan biri ekanligini ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Gapda ba'zan xabarning qaysi shaxsdan biri haqida ketayoganligi noma'lum bo'ladi. Bunga ikki holatdan biri sababchidir: a) so'zlovchi uchun axborotda ega haqidagi xabar qismining predikatdan anglashilgan xabar qismiga nisbatan ahamiyatsizligi; b) so'zlovchi uchun eganing ahamiyatini kuchaytirish uchun atay yuzaga chiqarilmasligi. So'zlovchi uchun eganing noma'lumligi shaxs -son kategoriyasi shaklining «shaxsning noma'lumligi» ma'nosi yuzaga chiqishiga sabab bo'ladi. Demak, so'z-

lovchi uchun ham, tinglovchi uchun ham axborot mazmunida eganing yuzaga chiqishi shart emas".[1] Bunda, albatta, ega zarur va mutlaq noma'lum emas, balki ahamiyatsiz bo'lganligi uchun aniqlik shart bo'lmagan holatda noma'lum bo'lib qolaveradi: *1. Shuning uchun bu ajoyib daraxtni olovli mohur ham deyishadi (Pirimqul Qodirov).* So'zlovchi ifoda etayotgan fikrning egasi o'zidan boshqa shaxs ekanligini uqdirish maqsadida kesimlik shakliga "ko'plik" ma'nosini beradi, birgalik nisbat shaklini undan oldin tirkaydi. Ega haqidagi ma'lumot uning nutqiy intensionidan tashqarida turadi.

Ayrim hollarda, so'zlovchining egaga urg'u berish istagi kesimdagi shaxs-son shaklining shakliy-ma'noviy jihatdan o'ta kuchsizlanishiga sabab bo'ladi: **Men – yahudiy** (G'afur G'ulom) kabi. Bunda, yuqorida aytilganidek, **Men (boshqalar emas) – yahudiy** presuppozitiv mazmuni qalqib chiqadi. Shoir bu asarida xuddi «shu gapni (hamisha ta'kid ma'nosini kuchaytiruvchi eksplitsit – ifodalangan ega bilan) yetti marta qo'llaydi".[2] Lekin *G'.G'ulom o'z asariga «Men – yahudiy» deb sarlavha qo'yadi.* Bu yerda "Men gapning zaruriy-majburiy – struktur qismi"[3] bo'lib, unda faqat ta'kid ma'nosi berilmagan, balki fikrning zaruriy tarkibiy qismi sifatida aks ettirilgan. Bundan, yuqorida aytilganidek, *Men (boshqalar emas) – yahudiy* presuppozitiv mazmuni qalqib chiqadi. Demak, ajratish intensiyasi shaxs-son shaklining kuchsizlanishiga sabab bo'lishi mumkin.[4] So'zlovchining "hurmat bajo keltirish" intensioni shaxs-son shaklining ko'chma ma'no ifodalanishini keltirib chiqaradi. *Misollar: Qo'rg'onga qaytmang, amirzodam! Sodiq beklar bo'lsa ketingizdan kelsinlar! (Pirimqul Qodirov. Yulduzli tunlar. 61-bet).* «Hurmatsizlik» ma'nosini ifodalash ham, ko'pincha, kesimning shaxs-son kategoriyasi orqali namoyon bo'ladi. So'zlovchining subyektiv munosabati sifatidagi «hurmatsizlik» ma'nosi nutqda, aksariyat hollarda, ikkinchi shaxs qo'shimchasi o'rnida uchinchi shaxs shaklini qo'llash orqali yuzaga chiqadi: *– Yaxshi ho'kiz birov yetaklasa keta beradimi? – Bisotimda hech narsa yo'q... –O'zi qaytib kelmasmikin?.. Birov olib ketsa qaytib kela ber, deb qo'yilmagan ekan-da! Nega yig'lanadi? A? Yig'lanmasin! Shundan so'ng amin ham "suyunchi"ni olgach, "pristav"ga xabar berishni va'da qiladi. Qobil bobo go'yoki "pristav" aralashsa, ho'kizi topilishi aniqdek bu va'daga bir necha kun quvonib yuradi (A.Qahhor).* Bunda so'zlovchining subyektiv munosabatidagi «hurmatsizlik» omili yuqoridagi holatdan kuchliroq bo'lib, u, hatto tinglovchilarga shaxs sifatida buyruq qilishdan ham go'yo or qiladi va o'ta rasmiy tusda o'z fikrini bayon etadi – ikkinchi shaxsga murojaat shaxssiz shakl orqali beriladi.

Tahlil va natijalar. Shaxssiz shakl o'z umumiy grammatik ma'nosiga xos bo'lmagan nokategorial ma'noni so'zlovchining subyektiv munosabati omili ta'sirida yuzaga chiqaradi. Shaxssiz shaklning «hurmatsizlik» nokategorial ma'nosi o'ziga pragmatik vaziyatni taqozo qiladi. Norasmiy vaziyatda va jonli muloqotda rasmiy shaklning «norasmiylashuvi» morfologik ko'rsatkichga immanent bo'lmagan ma'noni voqelantirishga olib keladi. Dunyoqarash, axloq, shaxsiy mental omillar shu tarzda qorishib, so'zlovchining intensial harakatini boshqaradi, bu grammatik shaklning g'ayriodatiy qo'llanishi va ma'no ifodalashiga sabab bo'ladi. "Birinchi shaxs ko'plikdagi shaxs-son shakli birlik ma'nosini ifodalashi mumkin va bu ham so'zlovchining subyektiv xususiyatlari bilan belgilanadi. Bunda uch holat farqlanadi: a) rasmiy vaziyatda «men» ma'nosini susaytirish uchun; b) norasmiy vaziyatda «men» ma'nosini kuchaytirish uchun; d) norasmiy vaziyatda «men» ma'nosini susaytirish uchun. Rasmiy muloqot madaniyati shaxsning «men»ni kuchaytirishi natijasida so'zlovchining intensiyasini to'laroq ro'yobga chiqarishiga sabab bo'ladi".[5] Abdulla Qahhorning «O'g'ri» hikoyasida Qobil boboning nutqida norasmiy vaziyatda «men» ma'nosini susaytirish uchun shaxs-son kategoriyasining birinchi shaxs, ko'plik ko'rsatkichini qo'llash holatlari ko'p uchraydi.

Xulosa. Tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, shaxs-son kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining pragmatik mazmun kasb etishi so'zlovchi, tinglovchi holati va nutqiy vaziyat omillari bilan yaxlitlanib, uyg'un harakat qilishi asosida sodir bo'ladi. Xususan, zamon va mayl bir-biri bilan morfologik va semantik jihatdan shunchalik bog'langanki, ularni alohida o'rganish, ko'pincha, uslubiy va tadqiqiy murakkabliklarni keltirib chiqaradi.[6] Zamon va mayl kategoriyalari umumiy grammatik ma'nosining voqelanishida, avva-

---

[1] Эрназарова М. Грамматик маъно лисоний ва прагматик омиллар яхлитлигида. Фил. фан. докт. дисс., Тошкент, 2017.

[2] Неъматов Ҳ., Менглиев Б. Ғафур Ғуломнинг лисоний имкониятлардан фойдаланиш маҳорати. Ғафур Ғулом ва давримиз (тўплам). Қарши, 2003, 81-бет.

[3] O'sha manba.

[4] Юлдошева Н. Содда гап қолиплари воқеланишига таъсир қилувчи морфологик омиллар ҳақида. FarDU, "Ilmiy xabarlar", 2021, 5-сон, 41– 48-бетлар

[5] Эрназарова М. Грамматик маъно лисоний ва прагматик омиллар яхлитлигида. Фил. фан. докт. дисс., Тошкент, 2017.

[6] Мусулманова Н.Р. Грамматик шаклларда категориал, ёндош ва ҳамроҳ маъно. Тошкент, "Фан", 2012.

lo, so‘zlovchining voqelik bilan bilvosita yoki bevosita munosabatdaligi, harakat/holatning vaqt chizig‘ining qaysi kesmasida sodir bo‘layotganligini bilish katta ahamiyatga ega. Demak, pragmatik omillarning o‘zi ham rang-barang, ularning har birini pragmatik mazmun va so‘zlovchi intensiyasi hamda nutqiy natija nuqtai nazaridan atroflicha tahlil qilish amaliy tilshunoslik, tildan amaliy foydalanish samaradorligini oshirish muammolari yechimida katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Эрназарова М. Грамматик маъно лисоний ва прагматик омиллар яхлитлигида. Фил. фан. докт. дисс., Тошкент, 2017.

(2). Неъматов Ҳ., Менглиев Б. Ғафур Ғуломнинг лисоний имкониятлардан фойдаланиш маҳорати. Ғафур Ғулом ва давримиз (тўплам). Қарши, 2003, 81-бет.

(3). Юлдошева Н. Содда гап қолиплари воқеланишига таъсир қилувчи морфологик омиллар ҳақида. FarDU, “Ilmiy xabarlar”, 2021, 5-сон, 41–48-бетлар.

(4). Мусулманова Н.Р. Грамматик шаклларда категориал, ёндаш ва ҳамроҳ маъно. Тошкент, “Фан’, 2012.

Qurbanova Zulxumor Azamat qizi (O‘zMU Xorijiy filologiya fakulteti „Nemis filologiyasi” kafedrasi tayanch doktoranti; E-mail: zulxumor.qurbanova2022@mail.ru)

LUG‘ATLARDA FRAZEOLOGIZMLAR PRAGMATIKASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada umumiy va ixtisoslashgan lug‘atlarda frazeologizmlarning semantik-pragmatik xususiyatlarini aks ettirish muammolari tahlil qilingan. Tadqiqotda frazeologik birliklarning murakkab semantik strukturasi va pragmatik potensialini leksikografik tavsiflash masalalari yoritiladi. Shuningdek, nazariy va amaliy leksikografiya tamoyillari hamda foydalanuvchi ehtiyojlari uyg‘unligida frazeologik birliklarni lug‘atlarda berish bo‘yicha tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *frazeologiya, pragmatika, leksikografiya, til didaktikasi, tarjima, semantika, frazeologik birlik, uslubiy rang, kontekst, lisoniy ta’sir, foydalanuvchi ehtiyojlari.*

ПРАГМАТИКА ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В СЛОВАРЯХ

Аннотация. *В данной статье анализируются проблемы отражения семантико-прагматических особенностей фразеологизмов в общих и специальных словарях. В исследовании освещаются вопросы лексикографического описания сложной семантической структуры и прагматического потенциала фразеологических единиц. Также разработаны соответствующие рекомендации по представлению фразеологизмов в словарях с учетом принципов теоретической и практической лексикографии, а также потребностей пользователей.*

Ключевые слова: *фразеология, прагматика, лексикография, языковая дидактика, перевод, семантика, фразеологизм, стилистическая окраска, контекст, языковое воздействие, потребности пользователей.*

PRAGMATICS OF PHRASEOLOGISMS IN DICTIONARIES

Annotation. *This article analyzes the challenges of representing the semantic-pragmatic features of phraseological units in general and specialized dictionaries. The research explores the issues of lexicographical description regarding the complex semantic structure and pragmatic potential of phraseological units. Furthermore, appropriate recommendations for including phraseological units in dictionaries have been developed, integrating the principles of theoretical and practical lexicography with user-oriented needs.*

Key words: *phraseology, pragmatics, lexicography, language didactics, translation, semantics, phraseological unit, stylistic color, context, linguistic influence, user needs.*

Kirish. XX asrning 70-yillaridan boshlab tilshunoslikda yuz bergan kommunikativ-pragmatik burilish lingvistik tadqiqotlarda funksional yo‘nalishning ustuvor mavqega chiqishini ta’minladi. An’anaviy qiyosiy-tarixiy yoki tizimli-lingvistik yondashuvlardan farqli o‘laroq, zamonaviy tadqiqotlar diqqat markazida til birliklarining turli kommunikativ kontekstlarda qo‘llanishi va ularning pragmatik ta’sir potentsiali turadi.

Ushbu tamoyillar frazeologiya sohasidagi izlanishlar uchun ham g‘oyat dolzarbdir. Frazeologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanish bosqichida, asosan, turli tillar frazeologik fondining tizimli-struktur jihatlari tadqiq etilgan bo‘lsa, hozirgi bosqichda frazemalarning funksional-pragmatik xususiyatlari birinchi o‘ringa chiqmoqda. Bunda frazeologizmlarning matndagi (kontekstual) reallashuvi, tipik nutqiy vaziyat-